XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-mart VII-7-36-12-218-K/25 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumanining shahar, shaharcha va qishloqlarining ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududi tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-635-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Aerogeodeziya markazi Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan Tuproqqal’a tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yig‘ilishining 3-25-sonli bayoni o‘rganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika Aerogeodeziya Markazining Xorazm hududlararo bo‘linmasi tomonidan Tuproqqal’a tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 7-fevraldagi yig‘ilish 3-25-sonli bayoni tasdiqlansin.

2. Shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, sxematik xaritasi 2-ilova muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashidan so‘ralsin.

4. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Sultanov va ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  JIMALYAZOV AKMAL ORTIQOVICH

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2025-yil 13-martdagi
VII-7-36-12-218-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumani shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Shahar, shaharcha va qilshloqlar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni (*gektar*)
1	Pitnak qishlog‘i	75 859	11 774,12
2	Sarimoy qishlog‘i	241 207	85 730,26
3	Tuproqqal’a qishlog‘i	131 064	78 325,37
4	Nurhayot shaharchasi	5 220	97,99
5	Pitnak shahri	15 855	868,45
	Jami	**469 205**	**176 796,19**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2025-yil 13-martdagi
VII-7-36-12-218-K/25 -son qaroriga
2-ilova

